

NORDIC LIFE | 2024

Nordikka qo'shiling!

8^{NOS}

Iyul
Avgust • Sentabr



1

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

2

Muzokaralar

Jarayonlar tahlili

3

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili

NORDIK HAYOTI NORDIC LIFE



NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universitetining yana bir chorak – 2024-yilning iyul, avgust oylaridagi sermazmun hayoti “Nordic life”ning 8-faslida o‘z aksini topdi.

Ushbu broshyuramizda Nordik universitetining ilmiy yutuqlari, talabalarning yozgi ta‘il fursatlarini unumli tashkillash borasidagi sa‘y-harakatlar, jumladan xorijda ish va sayohat jarayonlari, universitet delegatsiyalarining xorijiy davlatlarga ta‘lim safarlari va istiqbolli muzokaralar natijalari yoritilgan.

Nordikning ilm-fan – ishlab chiqarish integratsiyasi va dual ta‘limga asoslangan tashabbus hamda hamkorliklari, jamiyatimizga professional kadrlar tayyorlashdagi yangi qadamlari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda olim va tadqiqotchilarni dolzarb mavzular atrofida birlashtirishi – bularning barchasi ushbu broshyurada jamlangan.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

Nordik universiteti qator tashabbus va yangiliklarga qo'l urmoqda. **"Nordic life"**ning navbatdagi 8-fasli orqali Siz, aziz o'quvchilarni universitetning yoshlar uchun ochib berayotgan yangidan-yangi imkoniyat eshiklari, xorijiy tajribalarni o'rganish asnosida milliy tajribalarni boyitishga qo'shayotgan hissasi bilan tanishtirishni maqsad qildik.

Joriy yilning iyul, avgust oylarida Nordik universiteti talabalari uchun eng esda qolarli ta'til uyushtirildi. Talabalarimiz Work and travel dasturi asosida Finlandiyada sof tabiat bag'rida daromadli ishda ishladilar. Ular sayohatlarda ham bo'lib, xorijiy manzillar, finlar hayotiga xos jihatlarni fotolarga muhrladilar va universitet kanallari obunachilari uchun maxsus yuborib turdilar.

Shuningdek, ushbu davr ichida XNU huzuridagi Ilmiy kengashda dolzarb mavzulardagi qator dissertatsiya ishlari munosib himoya qilindi. Ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkillanib, dolzarb muammolarga ilmiy yechimlar olishga erishildi. Quvonarlisi, "Nordik" elektron jurnali OAK ro'yxatiga kiritildi.

Qabul jarayonlarida ham mamlakatimiz yoshlari uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Yangi zamonaviy yo'nalish va mutaxassisliklar uchun litsenziya olishga erishildi. UZREPORT AA hamkorligida "UzReport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi" tashkil etildi, dual ta'lim yo'lga qo'yildi va ilk bor Jurnalistika yo'nalishi va mutaxassisligiga qabul amalga oshirildi.

Nordik universitetining hamkorlik aloqalari ham kengayib bordi. Italiya, Turkiyaga ta'lim safari uyushtirilib, istiqbolli muzokaralar amalga oshirildi. Ikki nafar iqtidorli talabamiz Italiyaning nufuzli universitetida grant asosida o'qish uchun yo'l oldilar. Janubiy Koreyaning Daegu, aSSIST kabi nufuzli universitetlariga javob tashriflari amalga oshirilib, hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu broshyuramizda bularning barchasi bilan kengroq tanishishingiz mumkin.

Sherzod Mustafakulov

*Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

Kirish	3
Nordik ochiqlik tamoyili bo'yicha O'zbekiston OTMLari ro'yxatida top-15 talikda!	4
Nordikning fin tili o'qituvchisi Johanna Järveläinen Finlandiyada talabalarimiz huzurida	5
XNU kengashida dissertatsiya ishlari himoyasi davom etmoqda	5
Fin universiteti doktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi	6
XNU kengashida navbatdagi himoya muvaffaqiyatli yoqlandi	6
Italiyaga ta'lim tashrifi: istiqbolli muzokaralar o'tkazildi	7
Daegu universitetiga ta'lim tashrifi uyushtirildi	7
Magistraturaga kirish imtihonlari o'tkazildi	8
aSSIST universitetiga javob tashrifi amalga oshirildi	8
Nordik universitetida "Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish: davlat siyosati va imkoniyatlari" mavzusida onlayn ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi	9
Malaka oshirish kursi oldidan trening o'tkazildi	9
Nordik talabasi - yilning eng yaxshi tarbiyachisi!	10
Xalqaro Nordik Universiteti va "UzReport" axborot agentligi hamkorligida "UzReport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi" tashkil etildi	10
"Nordik" elektron jurnali OAK ro'yxatida!	11
Finlandiyaga navbatdagi ta'lim safari qizg'in boshlandi	11
Ilm-fan - ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan hamkorlik yo'lga qo'yildi	12
Turkiyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi	12
Talabalarimiz qo'shma ta'lim dasturi asosida Finlandiyaga yo'l oldilar!	13
Professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlar uchun seminar-trening kunlari boshlandi	14
Nordik universiteti professor-o'qituvchilari – treningda	14
Seminar-treningda Finlandiyadan tashrif buyurgan o'qituvchilar ishtirok etishdi	14
Finlandiyalik professor-o'qituvchilar tajribalari o'rganilmoqda	15
Seminar-treningda xalqaro tajribalar o'rganildi	15

MUNDARIJA

Nordikda "Xon atlas festivali"!	15
Hamkorlik memorandumi imzolandi	16
Mustaqil izlanuvchilik uchun imtihon bo'lib o'tdi	16
Kasbiy mahorat - sifatli ta'lim negizi	16
Raqamli ta'lim sohasi vakillari yirik anjumanda uchrashdilar	17
Nordikda sport haftaligi	17
Toshkent → Yevropa → Toshkent	18
Koreya yanada yaqin!	18
Mukofot muborak!	18
XNUda tayyorlangan monografiya Yevropa davlatlarida nashr etildi	19
Nordik olimlarining maqolasi – gazetalarda	19

Nordik ochiqlik tamoyili bo'yicha O'zbekiston OTMlari ro'yxatida top-15 talikda! |2-iy|



“**VOTUM**” agentligi oliy ta’lim muassasalarining ochiqlik reytingini e’lon qildi.

Mazkur reytingni tuzishda ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, ochiq manbalar, veb-saytlar hamda universitet vakillarining auditoriya uchun qay darajada ochiqligi va muloqotga kirishish qobiliyati inobatga olingan.

Nordikning fin tili o'qituvchisi Johanna Järveläinen Finlandiyada talabalarimiz huzurida |3-iy|



Avval xabar berganimizdek, bir guruh talabalarimiz **“Work and travel”** dasturi bo'yicha baxtililar mamlakatining Kesalahti shaharchasida bo'lib turibdilar.

Talabalarimizga ustoz bilan uchrashuv katta xursandchilik bag'ishladi!


XNU kengashida dissertatsiya ishlari himoyasi davom etmoqda |5-iy|

XNU huzuridagi **PhD.03/29.12.2022.I.157.01** raqamli Ilmiy kengash qoshida **Ilmiy seminar**ning navbatdagi yig'ilishi tashkil etildi.

Ilmiy seminarida Xalqaro Nordik universiteti mustaqil izlanuvchisi **Muxamedjanova Kamola Akramovna** *“Ishlab chiqarishda ta'minot zanjirini boshqarish mexanizmini takomillashtirish”* mavzusida himoya ishining dolzarbligi, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalari bilan tanishtirdi.

Shuningdek, **Sharof Rashidov** nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti **Boymurodov Janon Komiljonovich** *“Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”* mavzusidagi himoya ishining mohiyatini ochib berdi, ishlab chiqqan ilmiy, amaliy tavsiyalari bilan batafsil tanishtirdi. Tadqiqotchilar Ilmiy kengash a'zolarining barcha savollariga javoblar berdilar.

Ilmiy kengashda tadqiqot ishlari keng muhokama etildi, munosib yoqlandi va keyingi bosqichga yo'naltirildi.



Fin universiteti doktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi |8-iyul|



Finlandiyaning **Jyväskylä** pedagogika universiteti doktori **Ilhom Halimzoda** Nordik universiteti prorektori hamda kafedralar mudirlari bilan uchrashdi va suhbatda bo'ldi.

Uchrashuvda fin universiteti tadqiqotchisi Nordik universiteti faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi. Suhbatda ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida hamkorlik qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish borasida fikr almashildi.

XNU kengashida navbatdagi himoya muvaffaqiyatli yoqlandi |16-iyul|

Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashda navbatdagi himoya ishi ko'rildi.

Kengashda Xo'jayorov Hayot Baxtiyorovich (Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti) "Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi nazariy va amaliy ahamiyatga molik himoya ishi bilan keng tanishtirdi.

Ilmiy Kengashda innovatsion iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan dolzarb taklif va tavsiyalar ilgari surildi. Tadqiqot ishi keng muhokama qilindi va munosib yoqlandi.



Italiyaga ta'lim tashrifi: istiqbolli muzokaralar o'tkazildi |19-iyul|

Xalqaro Nordik universiteti Boshqaruv kengashi raisi **Alisher Jo'rayev Italiyaning Trento universitetida** qator uchrashuvlar o'tkazdi.

Trento universiteti rahbariyati bilan uchrashuvlarda ikki universitet o'rtasida talabalar, professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma dasturlar, **Erasmus+** loyihalarida hamkorlik hamda **PhD** ilmiy darajasida ikki diplom olish yo'nalishlarida muzokaralar olib borildi.

Ma'lumot o'rnida, Trento Italiyaning nufuzli universiteti sanaladi. Universitet Italiyaning yashash uchun eng yaxshi shahri - Trentoda joylashgan. **Times Higher Education (THE)** xalqaro reytingida nufuzli universitetlarning **350 talik ro'yxatiga kiritilgan**.

Bu xorijiy universitet bilan hamkorlik natijasida sentyabr oyida 2 nafar talabamiz grant asosida o'qishni boshlaydi. Ta'lim safari uchrashuvlarida Nordik va Trento universiteti o'rtasida yanada keng qamrovli, chuqur hamkorlik aloqalari o'rnatildi.



Daegu universitetiga ta'lim tashrifi uyushtirildi |22-iyul|



Nordik universiteti delegatsiyasi Janubiy Koreyaning Daegu universitetiga ta'lim tashrifini amalga oshirdi.

Tashrif davomida universitet rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi va qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish borasida muzokaralar olib borildi.

Daegu universiteti 1956-yilda ochilgan bo'lib, hozirda umumiy maydoni 300 gektarni tashkil etgani holda Koreyada kattaligi jihatidan 3-o'rinda turadi. 78 ta bino-inshoot, 9 ta talabalar turar joyi, 2 mln.dan ziyod nomdagi adabiyotlarni jamlagan kutubxona va 90 dan ortiq ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlamoqda.



Vakillarimiz uchun universitet kampuslariga sayohat uyushtirilib, u yerda yaratilgan sharoitlar tanishtirildi. Xalqaro talabalar va professor-o'qituvchilar uchun ajratilgan grantlar haqida ma'lumotlar berildi. Uchrashuv jarayonida ikki universitet o'rtasida xalqaro hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Magistraturaga kirish imtihonlari o'tkazildi |24-iyul|

Imtihon komissiyasi mas'ullari talabgorlarni magistratura bosqichida o'qishning afzalliklari va imkoniyatlari bilan tanishtirib o'tdilar.

Talabgorlar o'z tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha yozma va og'zaki suhbat tarzidagi kirish imtihonlarini topshirdilar.



aSSIST universitetiga javob tashrifi amalga oshirildi |25-iyul|



XNU prorektori Nuriddin Murodullayev va fakultet dekani Elshod Umarov Janubiy Koreyaga amaliy tashriflari davomida aSSIST universitetida bo'ldilar.

Talabalarning biznes qobiliyatlarini eng qisqa muddatda yuqori darajada rivojlantirishga ixtisoslashgan mazkur hamkor universitet bilan muzokaralar manfaatli kechdi.

Double degree, foundation va talaba almashish dasturlarini amalga oshirish borasida kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, tashrif samarasida ushbu nufuzli universitetda talabalarimizning intellektual mulk, savdo innovatsiya va biznes boshqaruvi bo'yicha doktorlik kurslari imkoniyatlaridan foydalanishlariga keng yo'l ochildi.

Nordik universitetida "Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish: davlat siyosati va imkoniyatlari" mavzusida onlayn ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi |26-iyul|

Konferensiya doirasida yoshlarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish borasida davlat siyosati va imkoniyatlari muhokama qilindi.

Yangi yondashuvlar va tajribalarni o'rganish, shuningdek, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning moliyaviy va ijtimoiy savodxonligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.



Malaka oshirish kursi oldidan trening o'tkazildi |30-iyul|

Nordik universitetining "**Nordic training**" malaka oshirish markazi tomonidan sentyabr-oktyabr oylarida Finlandiya, Shvetsiya va Turkiya davlatlarida malaka oshirish kursi tashkil etildi.

"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" yo'nalishidagi malaka oshirish kursi ishtirokchilariga trening o'tkazilib, kurs maqsad va vazifalari bilan tanishtirildi.

Finlandiyada ta'lim tizimida qanday tushunchalar mavjud? Ta'limning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi? Ayni paytda ta'limda qanday masalalar ustuvor bo'lib turibdi?

Treningda shu kabi savollarga javoblar berildi. Ishtirokchi professor-o'qituvchilar xorijiy mezbon mamlakatlar va ta'lim muassasalari haqida keng ma'lumotlar oldilar.



Nordik talabasi - yilning eng yaxshi tarbiyachisi! |1-avg. |



"Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2024" kasbiy ko'rik-tanlovining respublika bosqichida magistraturada ilm olayotgan talabamiz Dildora Tojimova g'olib va sovrindorlar safidan o'rin oldi.



Nufuzli tanlovning final bosqichida mazkur talabamiz (Shayxontohur tumani 342-sonli DMTT tarbiyachisi) **"Yilning eng fidokor tarbiyachisi"** nominatsiyasida faxrli 1-o'ringa sazovor bo'ldi.



Xalqaro Nordik Universiteti va "UzReport" axborot agentligi hamkorligida "UzReport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi" tashkil etildi |2-avg. |

Ushbu yangi tashkil qilingan Akademiyada **"Jurnalistika"** ta'lim yo'nalishi (bakalavriat) va mutaxassisligi (magistratura) bo'yicha dual ta'lim shaklda jurnalistika sohasida eng yangi innovatsiyalar, xolis, tezkor va kreativ nuqtai nazar, professional bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar, yetuk mutaxassislar tayyorlash ko'zda tutilgan.

Shu o'rinda qayd etish joiz, davlatimiz rahbari tomonidan OAV sohasida oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatini tubdan oshirish, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish, mamlakat ravnaqi yo'lida faoliyat olib borayotgan tizimlar, tarmoq va sohalarda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash orqali jamiyatimizda shaffof muhit yaratish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.




"Nordik" elektron jurnali OAK ro'yxatida! |6-avg. |

Mamnuniyat bilan ma'lum qilamizki, Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosati qaroriga ko'ra, **"Nordik"** ilmiy-amaliy elektron jurnali milliy nashrlar ro'yxatiga kiritildi.

"Nordik" ilmiy-amaliy elektron jurnali iqtisodiyot va pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (**PhD**) va fan doktori (**DSc**) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatidan joy oldi.

Nordic
Scientific-practical e-journal

№ 01-08/2615



OLYI ATTESTATSIYA KOMISSIYASINING
2024-yil 5-avgustdagi rayosati qaroriga ko'ra Nordic ilmiy-amaliy elektron jurnali milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritildi

Finlandiyaga navbatdagi ta'lim safari qizg'in boshlandi |15-avg. |

Xalqaro Nordik universitetining 30 nafar professor-o'qituvchilari va magistratura talabalari Finlandiyada ta'lim safarida bo'ldilar.

"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" yo'nalishidagi malaka oshirish kursi tinglovchilariga Finlandiyadagi hamkor universitetlarda xorijiy tajribalar, ta'lim tendensiyalari bilan tanishish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, magistratura talabalari Finlandiyada stajirovka o'tadilar.



Ilm-fan - ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan hamkorlik yo'lga qo'yildi |15-avg. |

Xalqaro Nordik universiteti va Green Oasis Agriculture (Ummon sultonligi) kompaniyasi rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda atrof-muhit, yashil olamga foydali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, Yevropa, Osiyo va Sharq mamlakatlariga eksport qiluvchi investor-kompaniyaning 28 yillik tajribalari bilan tanishildi.

Uchrashuv davomida ilm-fan - ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha Anglashuv memorandumini imzolandi.



Turkiyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi |26-avg. |

Xalqaro Nordik universiteti prorektori **Odil Qo'ysinov** Turkiya Respublikasida ta'lim safarida bo'ldi.

Istanbul Sabahattin Zaim universiteti rahbariyati bilan uchrashuv o'tkazilib, o'zaro professor-o'qituvchilar, talabalar almashish, hamkorlikda konferensiyalar o'tkazish va xalqaro loyihalarda ishtirok etishga kelishildi.

Ma'lumot o'rnida, Istanbul Sabahattin Zaim universiteti 1892-yilda Usmonli imperiyasi davrida tashkil etilgan Qishloq xo'jaligi kollejidan meros (6000 m2) maydonda bunyod etilgan.

Mashhur turk olimi Sabhattin Zaim nomi bilan atalgan ushbu nufuzli universitetda 36 ta bakalavriat, 57 ta magistratura va 20 ta doktorantura yo'nalishlarida ta'lim berilmoqda.



Talabalarimiz qo'shma ta'lim dasturi asosida Finlandiyaga yo'l oldilar! |3-sen.|

Bakalavriat talabalari Dilshodbek Sultanov va Umrbek Otaxonov qo'shma ta'lim dasturi asosida Finlandiyaning Karelia amaliy fanlar universitetida ta'limni davom ettirmoqdalar.

Talabalarimiz dasturni muvaffaqiyatli yakunlagach, Xalqaro Nordik universiteti va Kareliya AFU diplomlari, ya'ni 2 ta diplomga ega bo'ladilar.



Professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlar uchun seminar-trening kunlari boshlandi |4-sen.|



"Universitetning nufuzini oshirishda akademik, ilmiy va xalqaro sohalarning o'rnini" mavzusidagi seminar-trening doirasida professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini har jihatdan oshirish maqsad qilingan.

Treningda XNU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov universitetni rivojlantirishning yangi bosqichi: raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, professor-o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Shuningdek, universitet prorektorlari va departament boshliqlari akademik faoliyat va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish tartib-qoidalariga keng to'xtaldilar.



Nordik universiteti professor-o'qituvchilari - treningda |4-sen. |

Bugungi treningda kafedralar mudirlari, fakultetlar dekanlari hamda mutaxassislar tomonidan o'quv yili davomida qo'l keladigan dolzarb masalalarda taqdimotlar qilindi.

Xususan, trening ishtirokchilari - jamoaga yangi qabul qilingan professor-o'qituvchilar ish jarayonini sifatli tashkil etishning muhim psixologik jihatlari, aqliy, ijodiy va ma'naviy kamolotga qaratilgan ta'limni tashkil etishda ilg'or tendensiyalar, universitetning asosiy qadriyatlarini bilan keng tanishtirildilar.

Shuningdek, treningda o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va sifatini ta'minlash, ECTS kredit-modul tizimi: talabalar bilimini baholashda adolat prinsiplari va korporativ etika kodeksiga rioya qilish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi qator dolzarb mavzularda muhim ko'nikmalar berildi.



Seminar-treningda Finlandiyadan tashrif buyurgan o'qituvchilar ishtirok etishdi |4-sen. |

Bugungi treningda Helsinki universiteti o'qituvchisi, vitse-expert, turizm maslahatchisi, Enjoy finnish kompaniyasining fin tilini o'rgatish bo'yicha mutaxassisi sifatida faoliyat yuritgan Johanna Porkkala qiziqarli taqdimot qildi.



U ikkinchi marotaba O'zbekistonda, xususan Nordik universitetida bo'lib turganidan mamnun ekanligini e'tirof etib o'tdi. Finlandiyada tadqiqot va ta'lim, ishlab chiqarish va amaliyotni muvofiqlashtirish borasidagi tajriba hamda imkoniyatlar bilan keng tanishtirdi.

Finlandiyalik professor-o'qituvchilar tajribalari o'rganilmoqda |6-sen. |



Finlandiyaning **Aalto universiteti** o'quv, tadqiqot bazasi va infratuzilmalarni yaratish, dizaynerlik va arxitektura ishlari bo'yicha departamenti boshlig'i **Tapio Rauno** Nordik universiteti professor-o'qituvchilari safidan joy oldi.

Bugungi treningda tajribali fin o'qituvchisi nufuzli Aalto davlat universitetining dunyo reytingida tutgan o'rnini (QS reytingi bo'yicha dunyoda - 8-o'rin, Yevropada 4-o'rinda) va imkoniyatlari bilan tanishtirdi.

Seminar-treningda xalqaro tajribalar o'rganildi |6-sen. |



Nordik universitetida faoliyat boshlagan Finlandiyaning nufuzli **Aalto universiteti** professori **Aija Elg** fin tilini o'rganishning ahamiyati, masofaviy ta'limning afzal jihatlari xususida to'xtaldi.

Finlandiya ta'lim vazirligida fin tilini o'qitish bo'yicha bosh mutaxassis, Tampere, Jyaskyla, Kaliforniya, Minnesota, Washington, Indiana kabi dunyoning qator nufuzli universitetlarida ko'p yillik faoliyat tajribalariga ega Aija Elg o'zi yaratgan fin tilini muvaffaqiyatli o'rgatuvchi platforma bilan tanishtirdi va tajribalari bilan bo'lishdi.

Nordikda "Xon atlas festivali"!



Hamkorlik memorandumi imzolandi |10-sen.|

Xalqaro Nordik universiteti va Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda kadrlar tayyorlash, axborot materiallari va tadbirlar haqida o'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish, ilmiy-metodik resurslar tayyorlash, MTT rahbar va pedagoglari uchun xorijda stajirovka hamda malaka oshirish kurslari tashkillash kabi qator hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi. Muzokara davomida hamkorlik memorandumi imzolandi.



Mustaqil izlanuvchilik uchun imtihon bo'lib o'tdi |12-sen.|



Imtihon Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov raisligidagi komissiya tomonidan o'tkazildi.

Mutaxassislik bo'yicha kirish imtihoni va suhbatda mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar o'zlarining bilim darajasi va ilmiy salohiyatlarini namoyish etdilar.

Kasbiy mahorat - sifatli ta'lim negizi |18-sen.|

Nordik universitetida 16-18-sentyabr kunlari respublikamizning 200 nafar maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida seminar-trening o'tkazildi.

Universitet rahbariyati va professor-o'qituvchilari tomonidan trening o'tilib, rahbar kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish, ularda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim tendensiyalari bilan tanishtirishga e'tibor qaratildi.

Treningda xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Finlandiyadan taklif etilgan fin o'qituvchisi Aija Elg trening ishtirokchilarini mamlakatning maktabgacha ta'lim tizimi tajribalari bilan keng tanishtirdi.

Raqamli ta'lim sohasi vakillari yirik anjumanda uchrashdilar |18-sen.|

Nordik universiteti vakillari Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng yirik tadbir – **"ICT WEEK UZBEKISTAN 2024"** haftaligida ishtirok etdilar.

Mazkur nufuzli anjuman O'zbekistondagi IT-mutaxassislar va novatorlarni bir maydonda birlashtirdi. ICT Expo ko'rgazmalarida 50 dan ortiq davlatdan 200 dan ortiq kompaniya, ta'lim tashkilotlari va muassasalar vakillari sohadagi eng so'nggi yangiliklar borasida o'zaro tajriba almashdilar.



Nordikda sport haftaligi |19-sen.|

Universitetimizda **"Besh tashabbus olimpiadasi"** doirasida **"Biz bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - yagona Vatanimiz!"** shiori ostida sport haftaligi o'tkazilmoqda.

Shaxmat-shashka, stol tennisi kabi sport musobaqalarida talaba-yoshlar va o'qituvchi-xodimlarning bo'sh vaqtlari mazmunli o'tyapti.

Bellashuvlar natijalariga ko'ra g'oliblar taqdirlanmoqdalar. Eng muhimi, sog'lom turmush tarzi keng ommalashtirilyapti.



Nordik universitetining Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi Sayyora Haytbayeva falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ishini yoqladi.

U Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengashda "Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish (Biologiya fanini o'qitish misolida) mavzusidagi dissertatsiya ishini munosib himoya qildi.



Toshkent → Yevropa → Toshkent |25-sen.|

Yevropadagi 3 oylik "Work and travel" hisoboti tinglandi.

Kamchilik va yutuqlar ko'rib chiqildi. Ishtirokchilar takliflari olindi.

Endi esa yana asosiy faoliyat - o'qish, ilm olamiga sayohat boshlandi!



Koreya yanada yaqin! |29-sen.|



Nordik talabalari uchun Janubiy Koreyaning Daegu shahrida 68 ta kafedra, 34 ta filial, Dongsan tibbiyot markazi va 17 ta tadqiqot markazini o'z ichiga olgan yirik universitet - Keimyung eshiklari ham ochilmoqda.

1994-yildayoq dunyoning eng yaxshi universitetlari reytingidan joy olgan Keimyung universiteti vakillari hamkorlik taklifi bilan keldilar.

Endilikda Janubiy Koreyaning yana bir nufuzli universiteti bilan talaba almasha olamiz. Nafaqat TOPIK, IELTS sertifikati bilan ham qabul qilinadi.



Xalqaro Nordik universiteti prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor Odil Qo'ysinov 1-oktyabr - "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri buyrug'i asosida "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bu mukofot Xalqaro Nordik universiteti ahil jamoasining yosh avlodni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish borasidagi ezgu tashabbuslari uchun ham e'tirof namunasi bo'ldi.

Yuksak mukofot muborak bo'lsin!



Nordik universiteti prorektori
Odil Qo'ysinov "Xalq ta'limi fidoyisi"
ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

XNUda tayyorlangan monografiya Yevropa davlatlarida nashr etildi



Nordik universiteti rektori, i.f.d., professor Sherzod Mustafakulovning **"Theoretical and practical interpretation of investment attractiveness"** nomli monografiyasi (ingliz tilida) investitsion muhit jozibadorligining ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganishda qo'l keladi.

Ilmiy, uslubiy va amaliy asosda mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ta'minlash va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi mohiyatan keng ochib berilgan.

Monografiya orqali statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilish, O'zbekiston sharoitida investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilg'or xorijiy tajribalaridan foydalanish yo'llari bilan tanishish mumkin.

Nordik olimlarining maqolasi - gazetalarda

Yangi O'zbekistonni ishbilarmonlar uchun qulay, iqtisodiyoti baquvvat va farovon mamlakatga aylantirishda qanday samarali mexanizmlardan foydalanilmoqda? Mamlakat rahbariga har bir tadbirkor, mulkdor, biznes egasining fikri nima uchun muhim bo'lyapti?

"Xalq so'zi" gazetasida XNU rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor Sherzod Mustafakulovning 20-avgust - "Tadbirkorlar kuni" oldidan nashr etilgan chuqur tahliliy maqolasida davlatimiz rahbarining oddiy xalq orasidan yangi ishbilarmonlar sinfini shakllantirishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlari atroflicha ochib berildi.





Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashtirish sharoitida ta'lim eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org